Muallif Davron JO'RAYEV

Davron JO'RAYEV




# GEOGRAFIYA

## 8-SINFDAN MAVZULASHTIRILGAN SAVOL JAVOBLAR

## 2020-YIL

Muallif Davron JO'RAYEV

Assalomu alaykum hurmatli Geograf ustozlar, talabalar, abituryentlar va o'quvchilar sizlarga "8-Sinf Geografiya darsligidan mavzulashtirilgan savol javoblar to'plami" elektron kitobchasini taqdim etmoqchiman. Bu kitobcha o'z bilimingizni yanada mustahkamlashga yordam beradi deb umid qilaman. Xato va kamchiliklar uchun oldindan uzr so'rayman. Barchangizga o'qish va ishlaringizda omad tilayman. Abituriyentlarga talaba bo'lish baxti nasib etsin. Bu kitobcha sizlarga yoqishiga ishonaman !

Muallif: Davron JO'RAYEV

> O'quvchilar uchun

> O'qituvchilar uchun

> Abituriyentlar uchun

**600 TA SAVOLGA 600 TA JAVOB**

*Diqqat ! Kitobni muallif ruxsatisiz tarqatish, undan nusxa ko'chirish taqiqlanadi !*

# "8-SINF SAVOL JAVOBLAR TO'PLAMI"

## 1-MAVZU: KIRISH

1)Ijtimoiy mehnat unumdorligi nima?

**Javob: Moddiy ishlab chiqarishda band bo'lgan har bir ishlovchi hisoobiga hosil qilingan milliy daromad miqdori**

## 2-MAVZU: O'ZBEKISTONNING GEOGRAFIK O'RNI

1)Nechanchi asrda O'rta Osiyoda temiryo'l quruldi?

**Javob: XIX asr oxirlarida**

2)Qaysi davlatlarni bog'lovchi temiryo'l qurilgach, undan O'zbekiston tashqi aloqalardan foydalana boshladi?

**Javob: Turkmaniston va Eron**

3)O'zbekiston dengiz (okeanga) bevosita chiqish uchun kamida nechta davlat hududini kesib o'tishi zarur?

**Javob: 2 ta**

## 3-MAVZU: O'ZBEKISTONNING MA'MURIY-HUDUDIY TUZULISHI

1)O'zbekiston suverentini jahon hamjamiyati e'tirof etib, u bilan nechadan ortiq davlatlar diplomatik aloqalar o'rnatgan?

**Javob: 130 dan ortiq**

2)O'zbekiston Respublikasining hududi qancha?

**Javob: 448,9 ming kv. km**

3)O'zbekiston hududi jihatdan Osiyoda nechanchi o'rinni egallaydi?

**Javob: 15-o'rin**

4)O'zbekiston ma'muriy-hududiy tuzilishi nechta pog'onadan tashkil topgan?

**Javob: 3 ta**

5)O'zbekiston maydoni bo'yicha jahonda nechanchi o'rinni egallaydi?

**Javob: 55-o'rin**

6)Tuman bo'ysinuvidagi shaharlar turkimiga, qoida tariqasida kamida qancha aholisi mavjud bo'lgan aholi punktlari kiritilishi mumkin?

**Javob: 7 ming**

## 4-MAVZU: IJTIMOIY-IQTISODIY XARITALAR

1)Ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar o'zida nimalarni aks ettirad?

**Javob: Ijtimoiy, xo'jalik, hodisa va jarayonlarni o'zida aks ettiradi**

2)Ijtimoiy-Iqtisodiy xaritalarning eng yirik guruhlaridan bu..

**Javob: Sanoat xaritalaridir**

3)Samarqand viloyatida temiryo'llarning zichligi 10 ming kv. km hududaga necha kilometrni tashkil etadi?

**Javob: 150-250**

4)Qishloq xo'jaligi  xaritalar o'zida nima ifoda ettiradi?

**Javob: Mazkur sohaning geografik joylashuvi, uning rivojlanish shart-sharoitlarini, atrof-muhit bilan o'zaro tashirini o'zida aks ettiradi**

## 5-MAVZU: O'ZBEKISTONNING TABIIY SHAROITI VA TABIIY BOYLIKLARI

1)Eng muhim tabiiy boyliklar bu...

**Javob: Yerosti boyliklari (mineral resurslar)**

2)Suv qanday boylik turiga kiradi?

**Javob: Tiklanadigan**

3)Mamlakatimizni qaysi shaharlarida ayrim sanoat rayonlari hududida havo tarkibidagi kislorod aholi ehtiyojini qondira olmayapti?

**Javob: Toshkent, Farg'ona Navoiy shaharlari**

4)Nima ishlab chiqarish samaradorligining muhim omilidir?

**Javob: Tabiiy sharoit**

5)Quyosh energiyasi qanday boylik turiga kiradi?

**Javob: Tugamaydigan tabiiy boylik**

## 6-MAVZU: TABIIY SHAROIT VA TABIIY BOYLIKLARNING MILLIY IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI

1)O'zbekistonda dengiz sathidan necha metr balandlikkacha bo'lgan joylar cho'l mintaqasi hisoblanadi?

**Javob: 400 metr**

2)Cho'llarning samarasi har gektar hisobida obikor yerlardagidan necha marta kam?

**Javob: 100 marta**

3)Mamlakatimizda gaz zaxirasi qanchadan ortdi?

**Javob: 2 trillion kub metr**

4)Bitta qo'yni boqish uchun qancha gektar o'tloq talab etiladi?

**Javob: 2-3 gektar**

5)O'zbekiston cho'llarida necha boshgacha qo'y boqiladi?

**Javob: 10 mln**

6)Cho'l mintaqasida qanday mineral boyliklarni zaxirasi aniqlangan

**Javob: Neft, gaz, oltingugurt, oltin**

7)Respublikamizda dengiz sathidan 400-1200 metrgacha

baland bo'lgan qismini qaysi mintaqa tashkil etadi?

**Javob: Adir mintaqasi**

8)Surxondaryo vohasi va Qizilqumda qanday qazilma konlari mavjud?

**Javob: Fosforit**

9)O'zbekistonda tog' mintaqasiga dengiz sathidan necha metrdan balan bo'lgan hududlar kiradi?

**Javob: 1200 metr**

10)Ohangaron vodiysi atrofidagi tog'lari atrofida qanday konlar aniqlangan.

**Javob: O'tga chidamli loy, qo'ng'ir ko'mir, mis rudasi, oltin konlari**

11)Nurota tog'larida qanday qazilma konlar mavjud?

**Javob: Marmar, volfram**

12)O'zbekiston daryolaridagi yillik suvning necha foizi 3-4 oy davomida bahor va yoz boshiga to'g'ri keladi?

**Javob: 70-95%**

13)O'zbekistonda daryoga qurilgan GESlardan yiliga qancha kW·g elektr energiya qazib olinmoqda?

**Javob: 5 mlrd kW·h**

14)O'zbekistonni umumiy yer maydoni necha gektarni

tashkil etadi?

**Javob: 44,4 mln**

## 7-MAVZU: O'ZBEKISTON AHOLISI

1)O'zbekiston Respublikasining aholisi qancha?

**Javob: 33,2 mln (2019-y)**

2)Aholi soni bo'yicha O'zbekiston jahonda nechanchi o'rinni egallaydi?

**Javob: 44-o'rin**

3)Aholining o'lganlar soniga nisbatan tug'ilganlar sonining ortiqligi hisobiga ko'payib boradi va bu qanday ko'payish hisoblanadi?

**Javob: Tabiiy ko'payish**

4)Migratsiya so'zi qanday ma'noni anglatadi?

**Javob: Ko'chish degan ma'noni anglatadi**

5)Mexanik ko'payish deb qanday ko'payishga aytiladi?

**Javob: Ko'chib kelganlar soniga ko'payish**

6)Migratsiya qanday turlarga bo'linadi?

**Javob: Ichki va tashqi migratsiya**

7)1980-yilda O'zbekiston aholisi qancha bo'lgan?

**Javob: 15,8 mln**

8)1991-yil mammlakatimizda qancha bola tug'ilgan?

**Javob: 723,4 ming**

9)2001-yilda mamlakatimizda qancha bola tug'ilgan?

**Javob: 513  ming**

10)2017-yil mamlakatimizda qancha chaqaloq  dunyoga kelgan?

**Javob: 716 ming**

11)O'zbekiston aholisi yiliga qanchaga kishiga ko'payib bormoqda?

**Javob: Yarim mln dan ortiq kishiga**

12)Bundan I asr avval mamlakatimiz bo'yicha aholining zichligi har bir kvadrat kilometrga necha kishini tashkil etgan?

**Javob: 10-11 kishi**

13)Bugungi kunda mamlakatimizda aholi zichligi har bir kvadrat kilometrga necha kishini tashkil etadi?

**Javob: 70 kishi**

14)2016-yil mamlakatimizda o'rtacha umr davomiyligi necha yoshni tashkil etgan?

**Javob: 73,8 yosh**

15)1991-yilda mamlakatimizda o'rtacha umr davomiyligi

necha yoshni tashkil etgan?

**Javob: 66,4 yosh**

## 8-MAVZU: O'ZBEKISTON AHOLISINING TARKIBI

1)Mamlakatimizda necha yoshga to'lgan o'quvchilar o'qishdan bo'sh vaqtlarida ishlashlariga ruxsat etilgan?

**Javob: 15 yosh**

2)Mehnatda band aholining 8,2% i qaysi sohada band?

**Javob: Ta'lim**

3)Mehnatga yaroqlilar mamlakatimiz jami aholisining qancha qismini tashkil etadi?

**Javob: Yarimidan ortig'ini**

4)Kishilarning mehnat faoliyati ikki sohaga ya'ni qanday sohalarga bo'linadi?

**Javob: Moddiy ne'mat ishlab chiqaruvchi va moddiy ne'mat ishlab chiqarmaydiganlar**

5)Nechanchi yillarda O'zbekiston aholisi tarkibida erkaklar soni ayollar sonidan ancha kam edi?

**Javob: 1945-1960-yillarda**

6)Mehnatda band aholining necha foizi Qishloq xo'jaligida band?

**Javob: 27,3%**

7)1989-yilda O'zbekiston aholisining milliy tarkibida Qozoqlar necha foizni tashkil etgan?

**Javob: 4,0%**

8)2018-yilda Mamlakatimiz aholisi milliy tarkibini 2,3% kimlar tashkil etgan?

**Javob: ruslar**

9)2017-yilda mamlakatimizda O'zbeklar salmog'i necha foizga yetdi?

**Javob: 84%**

## 9-MAVZU: AHOLI PUNKTLARI

1)Mamlakatimizda bugungi kunda nechta shahar, shaharcha, qishloq va ovullar bor?

**Javob: 119 ta shahar, 1071 ta shaharcha, 11 mingdan ortiq qishloq va ovullar bor**

2)XX asr boshlarida O'zbekiston hududida nechaga yaqin shahar bo'lgan?

**Javob: 20 ga yaqin**

3)Mamlakatimizdagi shahar qiyofasidagi qaysi aholi punktlari hunarmandchilik va savdo-sotiq paydo bo'lgandan so'ng vujudga kelgan?

**Javob: Samarqand, Qo'qon, Buxoro, Xiva, Toshkent**

4)Kim Samarqand bo'ylab sayr etganda uni shunday ta'riflaydi:

*《Samarqand-juda yirik va g'oyat go'zal shaharlardan biridir. U Voha al-Qassirin daryosi qirg'og'ida joylashgan. Daryo qirg'og'ida shunday ulkan saroylar va binolar qad ko'tarib turibdiki, ular Samarqand aholisining yuksak mahorat sohibi ekanligidan dalolatdir》*

**Javob: Ibn Battuta**

5)Aholisi 500 mingdan ortiq shaharlar qanday shaharlar hisoblanadi?

**Javob: 《millioner shaharlar》**

6)Aglomeratsiya bu...

**Javob: Ko'p funksiyali shaharlar atrofida yo'ldosh shaharlarni vujudga kelishi**

7)Mamlakatimizdagi eng katta aglomeratsiya bu...

**Javob: Toshkent**

8)O'zbekistonda aholi punkti shahar maqomini olish uchun uning aholisi qancha bo'lishi kerak?

**Javob: 7 ming va undan ortiq**

9)Tohchiyon shaharchasi (Surxondaryo viloyati) qanday

kon negizida vujudga kelgan?

**Javob: Ko'mir koni**

10)O'zbekistonda 2019-yilda shahar aholisi necha foizni tashkil etmoqda?

**Javob: 50,5%**

11)O'zbekistonda 2019-yilda qishloq aholisi necha foizni tashkil etmoqda?

**Javob: 49,5%**

## 10-MAVZU: O'ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTINING TUZULISHI

1)Jahonning siyosiy xaritasida nechanchi yil O'zbekiston Respublikasi degan yangi mustaqil davlat paydo bo'ldi?

**Javob: 1991-yil 1-sentabr**

2)O'zbekiston mustaqillikdan so'ng 《o'ziga xos va o'ziga mos》taraqqiyot yo'lini tanladi. Bu yo'lning o'ziga xosligi nechta tamoyilda yaqqol ifodalangan?

**Javob: 5 ta**

3)O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning birinchi tamoyili qaysi tamoyil?

**Javob: Iqtisodning siyosatdan ustun turishi**

4)Yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi necha

foizdan ziyodni tashkil etmoqda?

**Javob: 30,6%**

5)2000-yilda yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi necha foizni tashkil etgan?

**Javob: 14,2%**

6)Mustaqillikka qadar O'zbekiston qishloq xo'jaligi, asosan, qaysi yo'l bilan rivojlangan?

**Javob: Ekstensiv**

7)Ekstensiv xo'jalik yuritish deb nimaga aytiladi?

**Javob: Ishlab chiqarishni fan-texnika yutuqlari va zamonaviy mexanizatsiya imkoniyatlari o'rniga tabiiy boyliklarni jadal o'zlashtirish hisobiga yuksaltirish usuli**

8)Intensiv xo'jalik yuritish deb nimaga aytiladi?

**Javob: Fan va texnika yutuqlarini iqtisodiyotga tezkor joriy etuvchi, xomashyo va boyliklarni tejab-tergab, chiqindi chiqarmay to'liq foydalanish usuli**

9)O'zbekiston milliy iqtisodiyoti qaysi yo'ldan rivojlanishi mehnat unumdirligi, mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligining jahon darajasiga yetishini ta'minlaydi?

**Javob: Intensiv**

## 11-MAVZU: SANOAT-MILLIY IQTISODIYOTINING

## TAYANCH TARMOG'I

1)Mustaqillikgacha yurtimiz, asosan, qaysi tarmoqlarga ixtisoslashgan?

**Javob: Paxtachilik va qorako'lchilik**

2)Milliy iqtisodiyotning moddiy ne'matlar ishlab chiqaradigan muhim tarmog'i bu...

**Javob: Sanoat**

3)Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

Sanoatning rivojlanishi bilan yangi aholi punktlari, ........ vujudga keladi.

**Javob: Trasport yo'llari**

4)Sanoat tarmoqlarining mahsulot ishlab chiqarish tarkibida kimyo sanoatning ulushi necha foiz?

**Javob: 8,8%**

5)Sanoat tarmoqlarining mahsulot ishlab tarkibida qaysi tarmoqning ulushi 7,8% ni tashkil etadi?

**Javob: Elektr energiya**

6)Hozirgi kunda O'zbekiston sanoatida qaysi tarmoqlar yetakchilik qilmoqda?

**Javob: Gaz qazib chiqarish, rangli metallurgiya, mashinasozlik va metalga ishlov berish, yengil va oziq-**

**ovqat sanoati**

7)Ishlab chiqarishning markazlashuvi deb nimaga aytiladi?

**Javob: Ishlab chiqarishning yirik korxonalarda to'planishi**

8)Ishlab chiqarishning asosan bir xil mahsulotlar ishlab chiqaradigan tashkiliy shakli nima deb ataladi?

**Javob: Ixtisoslashuv**

9)Majmua bu...

**Javob: Ishlab chiqarishni tashkil etishning iqtisodiy samaradorlikka qaratigan muhim shakli**

10)Tayyor mahsulot tayyorlashda bir qancha korxona qatnashadigan ishlab chiqarish shakli bu..

**Javob: Kooperativlashuv (hamkorlik)**

## 12-MAVZU: YOQILG'I-ENERGETIKA MAJMUASI

1)Hozirgi kunda olimlar qaysi energiya mabalaridan keng miqiyosda foydalanish yo'llarini izlamoqda?

**Javob: Quyosh, shamol, geotermal energiya**

2)Energetik boyliklariga qanday boyliklar kiradi?

**Javob: Yoqilg'i boyliklari va gidroenergiya boyligi**

3)Shartli yoqilg'i deb nimaga aytiladi?

**Javob: 1 kg toshko'mir yonganda hosil bo'ladigan (7 mln**

**kal) energiyaga aytiladi**

4)Qaysi yoqilg'i turlarini issiqligi (kalloriyasi) kam hisoblanadi?

**Javob: Torf, slanes, qo'ng'ir ko'mir**

5)Neftning issiqlik koeffitsienchi nechaga teng?

**Javob: 1,5**

6)Turli xil yoqilg'ilarni qazib chiqarish va ishlab chiqarilgan energiya (kirim) hamda ulardan iqtisodiyotda foydalanish (sarf qilish) nisbati nima  deb ataladi?

**Javob: Yoqilg'i-energetikaa  balansi**

7)Quruq o'tinning issiqlik koeffitsienti qanchaga teng?

**Javob: 0,34**

## 13-MAVZU: NEFT VA GAZ SANOATI

1)Qaysi yoqilg'i turi yoqilg'i sanoatining eng yosh tarmog'i hisoblanad?

**Javob: Gaz**

2)Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

......-yoqilg'ining eng arzon turi.

**Javob: Gaz**

3)Hozirgi paytda O'zbekistonda yiliga qancha gaz qazib o

olinmoqda?

**Javob: 60 mlrd kub**

4)O'zbekiston tabiiy gaz qazib oluvchi mamlakatlar reytingida nechanchi o'rinni egallaydi?

**Javob: 14-o'rin**

5)Tabbiiy gaz qazib oluvchi mamlakatlar reytingida qaysi mamlakat 1-o'rinni egallaydi?

**Javob: AQSH**

6)Mamlakatimizdagi dastlabki gaz quvurlari qayerda qurulgan?

**Javob: Farg'ona vodiysida**

7)Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

....... hozirgi zamon iqtisodiyotini yuritish mumkin emas.

**Javob: Neftsiz**

8)Neftni qazib chiqarish xarajati ko'mirni qazib chiqarish xarajatidan o'rtacha hisobda necha barobar kam?

**Javob: 4 barobar**

9)Mahsulot tannarxi deb nimaga aytiladi?

**Javob: Masalan 1 t neft qazib chiqarish uchun ketadigan pulda ifodalangan hamma xarajat**

10)Neft qazib olishning eng arzon usuli qaysi usul hisoblanadi?

**Javob: Fontan usuli**

11)Neftni quvurlar orqali yuborish uni tashishning eng arzon va xavfsiz usuli bo'lib temiryo'lda tashilgan neftdan qancha barobar arzonga tushadi?

**Javob: 4 barobar**

12)Namangan viloyatidagi Mingbuloq neft koni nechanchi yilda ochilgan?

**Javob: 1992-yilda**

13)Neftaga bo'lgan ehtiyojni uzliksiz ortayotganligini hisobga olib qaysi viloyatda yiliga 5 mln tonna neftni qayta ishlay oladigan zavod quruldi?

**Javob: Buxoro**

14)Buxoro viloyatida qurulgan neftni qayta ishlaydigan zavod nechanchi yilda mahsulot bera boshladi?

**Javob: 1997-yilda**

15)Hozirgi vaqtda mamlakatimizdagi neftni qayta ishlaydigan korxonalar yiliga qancha neftni qayta ishlash quvvatiga ega?

**Javob: 11 mln tonna**

## 14-MAVZU: KO'MIR SANOATI

1)Ko'mir sanoati tarkibida bir nechta ko'mir konlar mavjud. Ulardagi ko'mir zaxirasi qanchani tashkil etadi?

**Javob: 2 mlrd tonna**

2)Dastlabki ko'mir koni nechanchi yil qaysi kondan qazib olingan?

**Javob: 1950-yil Angren konidan**

3)Angren konidagi ko'mirning qancha qismi ochiq usulda qazib olinmoqda?

**Javob: 9/10**

4)Ochiq usulda har bir shaxtyorning qazib oladigan ko'miri shaxta usulida qazib olinadigan ko'mirdan  necha barobar arzonga tushadi?

**Javob: 6 barobar**

5)Angren konidan qazib olinayotning ko'mir qanday ko'mir hisoblanadi?

**Javob: Sifati past qo'ng'ir ko'mir**

6)Rekultivatsiya nima?

**Javob: Ko'mir sanoatida zavol ko'rgan maydonlarni qayta tiklash**

7)Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida nechanchi

yilda qaysi ko'mir koni ishga tushirildi?

**Javob: 1950-yil Sharg'un koni**

8)Sharg'un konidan qanday ko'mir qazib olinadi?

**Javob: Sifatli Toshko'mir**

9)Sharg'un konidagi ko'mir qaysi usulda qazib olinadi?

**Javob: Shaxta usulda**

10)Briket bu....

**Javob: Ko'mir kukunini bosim ostida yoki yopishqoq moddaga aralashtirib zoldir shaklga keltirilgan mahsulot**

11)O'zbekiston ko'mirining asosiy zaxiralari qaysi konlarda joylashgan?

**Javob: Angren, Sharg'un va Boysun konlarida**

12)Angren, Sharg'un va Boysun konlaridan yiliga qancha ko'mir qazib olinmoqda?

**Javob: 4 mln tonna**

13)Mamlakatimizda qazib olinqyotgan ko'mirning necha foizi qo'ng'ir ko'mir?

**Javob: 97,4% i**

14)Mamlakatimizda qazib olinayotgan ko'mirning necha foizi ochiq usulda qazib olinmoqda?

**Javob: 90-95% i**

## 15-MAVZU: ELEKTROENERGETIKA

1)Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining necha foiziga yaqinini issiqlik elektrostansiya (IES) lar bermoqda?

**Javob: 90%**

2)O'zbekistondagi eng yirik IESlar?

**Javob: Sirdaryo, Toshkent, Angren, Yangi Angren, Navoiy, Taxiatosh, Talimarjon**

3)Sirdaryo IES i yiliga qancha elektr energiya bermoqda?

**Javob: 13 mlrd kW·h**

4)Issiqlik elektr markazi (IEM) deb nimaga aytiladi?

**Javob: Bir vaqtda issiqlik energiyasi ham ishlab chiqaradigan elektr stansiya**

5)O'zbekistonda qanday IEM lar mavjud?

**Javob: Farg'ona, Muborak, Toshkent**

5)Tabiiy suv oqimi kuchiga asoslanadigan elektr stansiya bu...

**Javob: Gidroelektrstansiya (GES)**

6)O'zbekistondagi birinchi GES qaysi kanalda qurulgan?

**Javob: Bo'zsuv kanalida**

7)O'zbekistondagi birinchi GES nechanchi yilda qurulgan?

**Javob: 1926-yilda**

8)Chirchi-Bo'zsuv gidroenergetika kaskadida nechta GES mavjud?

**Javob: 19 ta**

9)O'zbekistondagi yirik issiqlik elektrostansiyalar va gidroelektrostansiyalarning umumiy soni qancha?

**Javob: 37 ta**

10)O'zbekistondagi elektr stansiyalar yiliga qancha elektr energiya hosil qilmoqda?

**Javob: 60 mlrd kW·h**

11)Bugungi kunda mamlakatimizda elektr energiyaga bo'lgan talab qanchani tashkil etmoqda?

**Javob: 69 milliard kW·h**

12)Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotga elekr energiyaning 90 foizini IES lar bermoqda.Buning uchun yiliga qancha tabiiy gaz, mazut va ko'mir sarflanmoqda?

**Javob: 16,5 milliard tabiiy gaz, 86 ming tonna mazut, 2,3 million tonna ko'mir**

13)1 kg uran (shartli yoqilg'isi) qancha tonna ko'mir

yonganda beradigan issiqlik miqdorini beradi?

**Javob: 2,5 ming tonna**

14)Xalqaro atom energiyasi agentligining ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda jahonning nechta mamlakatida AES lar ishlab turibdi?

**Javob: 31 ta**

15)Rossiyaning qaysi korporatsiyasi bilan O'zbekiston atom elektr stansiyasini qurish bo'yicha kelishuvga erishgan?

**Javob: "Rosatom"**

16)Mamlakatimizda quriladigan Atom elektr stansiyasi nechanchi yilda ishga tushurilishi  rejalashtirilgan?

**Javob: 2028-yilda**

17)Atomelektr stansiyasi barpo etilishi natijasida qancha tabiiy gaz tejaladi?

**Javob: 3,7 milliard**

18)Toshken viliyatining qaysi tumanida Quyosh energiyasidan foydalanadigan 《Fizika-Quyosh》 inshooti faoliyat ko'rsatmoqda?

**Javob: Parkent tumanida**

19)Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

Turli xil elektr stansiyalarni yuqori voltli elektr uzatish linyalari bilan birlashtirib, bir marlkazdan boshqarib turilishi ...... deb ataladi.

**Javob: Energetika tizimi**

20)O'zbekiston o'z ehtiyojidan ortayotgan elektr energiyani qaysi mamlakatlarga eksport qilmoqda?

**Javob: Tojikiston, Qozog'iston, Afg'oniston**

## 16-MAVZU: KIMYO SANOATI

1)O'zbekiston kimyo sanoatining shakllanishi nechanchi yilda va qaysi kon ochilishi bilan boshlandi?

**Javob: 1932-yilda Sho'rsuv oltingugurt koni ochilishi bilan boshlandi**

2)Kimyo sanoati tarkibida nima ishlab chiqarish salmoqli o'rin egallaydi?

**Javob: Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish**

3)Kimyo sanoatining qaysi mahsulotlari mashinasozlikda ishlatiladi?

**Javob: Plastmassa, oyna**

4)Kimyo sanoati qaysi sanoatlar chiqindilarini qayta ishlaydi?

**Javob: Paxta sanoati, gaz sanoati va rangli metallurgiya**

5)Kombinqtlashtirish deb nimaga aytiladi?

**Javob: Sanoatning texnologik jarayon jihatdan o'zaro bog'langan, ba'zan turli tarmoqlarga taalluqli bo'lgan bir qancha ishlab chiqarish korxonalarining bir korxonaga birlashtirilishiga aytiladi**

6)Kimyo sanoatining yirik korxonasi bo'lgan Chirchiq elektr -kimyo kombinati nechanchi yilda ishga tushgan?

**Javob: 1940-yilda**

7)Chirchiq elektr-kimyo kombinati dastlab  qanday mahsulot ishlab chiqargan?

**Javob: Havo tarkibidagi azotdan elektr energiyasi vositasida azotli o'g'it ishlab chiqargan**

8)Qaysi viloyat hududidan topilgan tabiiy gaz quvur orqali Chichiqqa keltirilgach Chirchiq eleltr-kimyo kombinati undan xomashyo o'rnida foydalanadigan bo'ldi?

**Javob: Buxoro**

9)Chirchiq elektr-kimyo kombinatida hozirgi kunda qanday mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda?

**Javob: Azotli o'g'itlar, magniy xlorid (g'o'za barginito'kiahda qo'llaniladigan kimyoviy modda), hamda plastmassa va sintetik tola olish uchun organik sentiz mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda**

10)Tabiiy gazdan azotli o'g'it va kimyoviy tola ishlab chiqaradigan zavodlar qaysi shaharlarda barpo etildi?

**Javob: Farg'ona va Navoiy**

11)Nechanchi yil Qo'qonda superosfosfat kombinati ishga tushdi?

**Javob: 1946-yil**

12)Qiziilqum fosforik kombinati nechanchi yilda ishga tushirilgan?

**Javob: 1998-yil**

13)1957-yilda qaysi shaharda superfosfat zavodi ishga tushdi?

**Javob: Samarqandda**

14)Qashqadaryoning qaysi tumanida kaliyli o'g'itlar iahlab chiqaradigan zavod ishga tushirildi?

**Javob: Dehqonobod**

15)Mamlakatimizda qanday osh tuzi konlari mavjud?

**Javob: Xo'jaykon, Borsakelmas, Boychikon va Oqqal'a**

16)Xo'jaykon, Borsakelmas, Boychikon va Oqqal'a kabi osh tuzi konlarida qancha tonna xomashyo bor?

**Javob: 90 milliard tonna**

17)Mamlakatimizning qaysi shahrida yuqori sifatli

ammofos ishlab chiqaruvchi zavod barpo etildi?

**Javob: Olmaliq**

18)Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

Angrenda ..... ishlab chiqariladigan kimyo korxonalar barpo etildi.

**Javob: Rezina**

19)Kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qonunga muvofiq 2018-2030-yillarda kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishni necha barobarga oshirish rejalashtirilmoqda?

**Javob: 4,5 barobarga**

20)Mamlakatimizda gidroliz korxonalari o'tgan asrning nechanchi yillarida qurila boshladi?

**Javob: 50-yillarida**

21)1 tonna gaz kondensatidan qancha sun'iy kauchik olish mumkin?

**Javob: 50 kg**

22)1 tonna gaz kondensatidan 150 kg qanday mahsulot olish mumkin?

**Javob: Plastik massa**

## 17-MAVZU: QORA METALLURGIYA

1)Metallurgiya majmuasi  ikki tarmoqni ya'ni qaysi tarmoqlarni o'z ichiga oladi?

**Javob: Qora va rangli metallurgiyani**

2)Qora metallurgiya nimalardan iborat?

**Javob: Temir rudasini qazib chiqarish, cho'yan, po'lat eritish, prokat va ferroqotishmalar ishlab chiqarishdan iborat**

3)Metall olishning eng yangi usuli qaysi usul hisoblanadi?

**Javob: Dominantsiz usul ya'ni rudani eritmay undan metallni ajratib olish**

4)Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

Metallurgiya kombinatlari ko'p miqdorda xomashyo va .... ishlatiladi.

**Javob: Yoqilg'i**

5)Bekobod metallurgiya zavodi nechanchi yilda ishga tushurilgan?

**Javob: 1946-yil**

6)Bekobod metallurgiya zavodida 1950-yil qancha tonna po'lat eritilgan?

**Javob: 119 ming tonna**

7)Toshkentda barop etilayotga Toshkent  metallurgiya

zavodining yer maydoni necha gektarni tashkil etadi?

**Javob: 100 gektar**

8)Toshken metallurgiya zavodiga qaysi mamlakatlarda ishlab chiqariladigan ilg'or zamonaviy uskunalar keltirilishi rejalashtirilgan?

**Javob: Italiya, Germaniya va Avstriya**

9)Toshken metallurgiya zavodi to'liq quvvatda ishga tushirilgandan so'ng yiliga necha million dollarlik mahsulot ishlab chiqarilishi kutilmoqda?

**Javob: 500 million dollarlik**

## 18-MAVZU: RANGLI METALLURGIYA

1)Rangli metallurgiya o'zida nimalarni birlashtiradi?

**Javob: Rangli metall rudalarini qazib chiqarish, boyitish, eritish, qotishmalarni ishlab chiqarishni o'z ichida birlashtiradi**

2)Mis, qalay, qo'rg'oshin, nikel, rux bu metallar qanday metallar hisoblanadi?

**Javob: O'g'ir metallar**

3)Qimmatbaho metallarga misollar keltiring!

**Javob: Oltin, kumush, planita**

4)Ilgari O'zbekistonda faqat qanday metallar qazib

chiqarilgan?

**Javob: Qimmatbaho**

5)Mamlakatimizda mis konlarining soni nechtadan ortdi?

**Javob: 15 tadan**

6)Mis rudasi tarkibida qanday metallar uchraydi?

**Javob: Moliben, oltin, kumush**

7)Konchilarning obod shahri bu....

**Javob: Olmaliq**

8)Boyitish fabrikasi deb nimaga aytiladi?

**Javob: Rudaning keraksiz qo'shilmalarini chiqarib tashlash yoki yangi moddalar qo'shish yo'li bilan foydali sifatlarini orttiruvchi korxona boyitish fabrikasi deyiladi**

9)Volframning erish harorat necha gradus selsiy (*C) ga teng?

**Javob: 3370*C**

10)Qaysi shahrdagi qiyin eriydigan qattiq qootishmalar zavodi mamlakatimizda nihoyatda muhim ahamiyatga ega?

**Javob: Chirchiq shahrida**

11)Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

.....-noyob metall.

**Javob: Oltin**

12)Bitta atom reaktorining ichki devorini necha kg oltin bilan qoplanadi?

**Javob: 16 kg**

13)XX asr o'rtalarida o'zbek olimlarining ishlanishlari natijasida qaysi oltin konlari aniqlandi?

**Javob: Muruntov, Chodak, Zarmitan, Qo'shbuloq, Qizilolma, Marjonbuloq**

14)O'zbekiston MDH davlatlari ichida oltin qazib chiqarish bo'yicha nechanchi o'rinni egallaydi?

**Javob: 2-o'rinni**

15)Muruntov oltin konining ruda qazib olinadigan joy hajmi va chuqurligi qancha?

**Javob: Hajmi 2 x 4 km, chuqurligi 400 metr**

16)Oltindan keyin turadigan qimatbaho metall bu...

**Javob: Kumush**

17)Qaysi tog' tizmalarida kumushning yirik konlari topilgan?

**Javob: Qurama**

18)Hozirgi kunga kelib tarkibida oltin va kumush bo'lgan nechadan ortiq ruda konlari aniqlangan?

**Javob: 30**

19)Qo'rg'oshin qanday mahsulotlar ishlab chiqarishda ishlatiladi?

**Javob: Akkumulatorlar, elektr kabellar ishlab chiqarishda ishlatiladi**

20)Temir buyumlar zanglamasligi uchun qaysi metall bilan sirlanadi?

**Javob: Rux**

20)Oq tunuka va podshipniklar yasashda qaysi metalldan foydalaniladi?

**Javob: Qalay**

## 19-MAVZU: MASHINASOZLIK VA UNING TARMOQLARI

1)Mashinasozlik majmuasi deb nimaga aytiladi?

**Javob: Iqtisodiyotning barcha sohalari uchun mashina va asboblar ishlab chiqaruvchi, aholini televizor, muzlatgich singari xilma-xil iste'mol buyumlari bilan ta'minlovchi sanoat tarmoqlarining ug'unligiga aytiladi**

2)Hozirgi zamon mashinasini tayyorlash uchun qanday mahsulotlar kerak bo'ladi?

**Javob: Metall, plastmassa, bo'yoqlar, rezina, gazlama, yog'oq-taxta**

3)Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

O'zbekiston iqtisodiyoti uchun an'anaviy ixtisosli sohalar hisoblangan ..... , ......, ...... yetishtirish va ularni qayta ishlash qo'l mehnatini ko'p talab qiladi.

**Javob: Paxta, pilla, kanop**

4)Toshkent va Chirchiqdagi qaysi zavodlar qishloq xo'jaligi mashinasozligining asosiy korxonalaridir?

**Javo: "Toshqishloqmash", "O'zbekqishloqmash", "Chirchiqqishloqmash"**

5)Nechanchi yilda O'zbek-Isroil qo'shma korxonasida paxta teradigan mashinaning yangi modeli yaratildi?

**Javob: 1994-yilda**

6)Irrigatsiya mashinasozligining markazi qaysi viloyat hisoblanadi?

**Javob: Andijon viloyati**

7)Mamlakatimizning qaysi shaharlarida paxta tozalash hamda yog' sanoati uchun mashina va uskunalar ishlab chiqaruvchi mashinasozlik zavodlari joylashgan?

**Javob: Toshkent, Andijon, Samarqand, Kattaqo'rg'on**

8)Samarqanddagi qaysi zavod ehtiyod qismlar ishlab chiqaradigan korxonalarning eng yirigidir?

**Javob: "Paxtamash" korxonasi**

9)Bog'dorchilk, uzumchilik va polizchilikda qo'llaniladigan mashina va moslamalar qaysi birlashmada ishlab chiqarilmoqda?

**Javob: "O'rta Osiyoqishloqmash" birlashmasida**

10)Nechanchi yilda "Zenit" konserni "O'zeltexsanoat" uyushmasiga aylantirildi?

**Javob: 1990-yil**

11)Qaysi tarmog'lar respublika mashinasozlik majmuasining jadal rivojlanuvchi, istiqbolli tarmog'i?

**Javob: Radioelektronika va elektrotexnika**

12)Hozirgi vaqtda mashinasozlik tarmoqlarida qanchaga yaqin kishi mehnat qilmoqda?

**Javob: 100 ming**

13)To'qimachilik uchun to'quv dastgohlar, asbob-uskunalar qaysi birlashmada ishlab chiqarilmoqda?

**Javob: "O'zbekto'qimachilikmash" birlashmasida**

14)"O'zbekto'qimachilikmash" birlashmasining korxonalari qaysi shaharlarda joylashgan?

**Javob: Toshkent, Qo'qon, Jizzax**

15)Kimyo va neft-kimyo mashinasozligi nechanchi yilda tashkil topgan?

**Javob: 1941-yil**

16)Kimyo va neft-kimyo mashinasozligining yirik korxonasi "O'zbekkimyomash" zavodi qaysi shaharda joylashgan?

**Javob: Chirchiq shahrida**

17)"O'zbekkimyomash" zavodi dastavval qanday mahsulotlar ishlab chiqargan?

**Javob: Kimyo, mikrobiologiya, selluloza-qog'oz sanoati korxonalari uchun uskuna-jihozlar ishlab chiqargan**

18)"O'zbekkimyomash" zavodi hozirda qanday mahsulotlar ishlab chiqarmoqda?

**Javob: Kimyo uskunalari, turbokompressorlar, ventilatorlar, nasoslar ishlab chiqarilmoqda**

19)Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

Komumunal xo'jaligi mashinasozligi tarmog'ida ... liftsozlik zavodi ishlamoqda.

**Javob: Samarqand**

## 20-MAVZU: AVTOMOBILSOZLIK

1)Nechanchi yilda O'zbekiston Respublikasi Janubiy Koreyaning "DAEWOO" kompaniyasi bilan hamkorlikda Andijonning Asaka shahrida paxta tashiydigan tirkamalar zavodi negizida yengil avtomobillar ishlab chiqaradigan "Uz-Daewoo Avto" (bugungi kunda "GM UZBEKISTON"

avtomobil zavodi qurila boshladi?

**Javob: 1992-yilda**

2)"Uz-Daewoo Avto" avtomobil zavodi 1996-yilda dastlab qaysi rusumdagi yengil avtomobillar chiqara boshladi?

**Javob: "Damas", "Tico", "Nexia"**

3)Bugungi kunda avtomobil qismlarining necha foizi O'zbekistonda tayyorlanmoqda?

**Javob: 85% i**

4)Bugungi kunda O'zbekiston Respubliksining nechadan ortiq korxonalari o'z mahsulotlarini Asaka shahridagi avtozavod konveyeriga uetkazib bermoqda?

**Javob: 250**

5)Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

O'zbekiston jahonda  avtomobil ishlab chiqaruvchi ...-davlatdir.

**Javob: 28**

6)Bugungi kunda "GM UZBEKISTAN" zavodi qaysi rusumdagi avtomobillarni ishlab chiqarmoqda?

**Javob: "Damas", "Nexia", "Lacetti", "Chevrolit Captiva", "Spark", "Malubi"**

7)Rossiya Federatsiyasida qanchadan ortiq O'zbekistonda

ishlab chiqarilgan avtomobillar harakatlanmoqda?

**Javob: 750 ming**

8)O'zbekiston Rossiyaga avtomobil sotish bo'yicha qaysi mamlakatlardan yuqori o'rinlarda  turadi?

**Javob: Chexiya, AQSH, Ukraina, Fransiya**

9)Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

Yengi avtomobillardan tashqari O'zbekistonda Yaponiyaning .....  va Germaniyaning ...... korxonalari bilan birgalikda tashkil qilingan qo'shma korxonalarda avtobuslar, yuk mashinalar, turliaxsus texnikalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

**Javob: ISUZU va MAN**

10)Toshkentdagi "GM Powertrian Uzbekistan" zavodi qanday mahsulot ishlab chiqaradi?

**Javob: Avtomobil dvigatellari ishlab chiqaradi**

11)"GM UZBEKISTAN" Xorazm filiali yiliga qancha avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega?

**Javob: 40 ming**

12)"GM UZBEKISTAN" Xorazm filialida qaysi rusmli avtomobillar ishlab chiqarilmoqda?

**Javob: "Damas", "Labo", "Orlando"**

13)Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

"O'zavtosanoat" AK va Fransiyaning ......  guruhi o'rtasida O'zbekistonda yengil tijorat avtomobillar ishlab chiqaruvchi qo'shma korxona barpo etish bo'yicha kelishuv imzolandi.

**Javob: "Pejo Citroen"**

14)Qurilishi rejalashtirilayotgan qo'shma  korxona qaysi erkin iqtisodiy zonada quriladi?

**Javob: "Jizzax"**

15)Qurilishi rejalashtirilayotgan qo'shma korxonada yiliga qancha avtomobil ishlab chiqariladi?

**Javob: 16000 ta**

## 21-MAVZU: YOG'OCHNI QAYTA ISHLASH SANOATI

1)Mamlakatimizda yog'och-taxta xomashyosiga bo'lgan yillik talab qancha kub metrdan ortib bormoqda?

**Javob: 10 mln kub metr**

2)Respublikamizda nechaga yaqin o'rmon xo'jaligi korxonalari, qo'riqxonalar va milliy bog'lar bor?

**Javob: 100 ga yaqin**

3)Toshkentdagi "O'z Ellas" gugurt zavodi qaysi davlat bilan hamkorlikda qurilgan?

**Javob: Gretsiya**

4)Selluloza deb nimaga aytiladi?

**Javob: Maydalangan va kimyoviy yo'l bilan ishlangan yog'och massasi, u sun'iy tola va qog'oz ishlash uchun xomoshyo bo'ladi**

5)Qoraqalpog'iston Respublikasining qaysi tumanida mahalliy xomashyo qamish, bug'doy, sholi somoni, paxta g'o'zapoyasidan selluloza va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxona tashkil etildi?

**Javob: Kegayli tumanida**

## 22-MAVZU: QURULISH MATERIALLARI SANOATI

1)Binokorlik uchun muhim bo'lgan sement mamlakatimizning qaysi shaharlarida ishlab chiqarilmoqda?

**Javob: Quvasoy, Ohangaron, Angren, Navoiy, Bekobod**

2)Surxondaryo viloyatining qaysi tumanida "Olmaliq kun-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati tomonidan barpo etilgan sement zavodi foydalanishga topshirildi.

**Javob: Sherobod**

3)Sherobod sement zavodida yiliga qancha yuqori sifatli portlandsement ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi?

**Javob: 1,5 million tonna**

4)Yurtimizda topilgan 34 ta marmar konining nechtasidan marmar qazib olinmoqda?

**Javob: 5 tasidan**

5)Qaysi marmar konining zaxirasi ko'pligi, yuqori sifatligi jihatdan jahondagi eng mashhur konlardan biridir.

**Javob: G'ozg'on koni**

6)Toshkent shahridan 74 km shimoli-sharqda joylashgan qaysi konda qora, oq va kulrang marmar uchraydi?

**Javob: Orkutsoy**

7)Bezakbop toshlarning umumiy zaxirasi qancha?

**Javob: 84 mln kub metrdan ortiq**

8)Chirchiq shahri yaqinida mahalliy xomashyo asosida ishlaydigan zavodda qanday mahsulot ishlab chiqarilmoqda?

**Javob: Deraza oynalari**

9)Qaysi viloyatlarda temir-beton buyumlari ishlab chiqarilmoqda?

**Javob: Toshent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro viloyatlarida**

10)Qaysi viloyatlarda silikat bloklari ishlab chiqaradigan zavodlar qurilgan?

**Javob: Xorazm, Buxoro, Farg'ona**

11)Mamlakatimizning barcha qishloq tumanlarida namunaviy loyihalar asosida nechadan ortiq yangi uy-joy massivlari barpo etildi?

**Javob: 1200 dan ortiq**

## 23-MAVZU: SANOAT VA EKOLOGIK MUAMMOLAR

1)Og'ir metallar deb nimaga aytiladi?

**Javob: Kishilar organizmidagi immunitetni pasaytirib, kasallanish darajasining yuqori bo'lishiga ta'sir etadi, aholi va tabiat uchun katta xavf-xatar tug'diradi**

## 24-MAVZU: AGROSANOAT MAJMUASI

1)Agrosanoat majmuasi (ASM) deb nimaga aytiladi?

**Javob: Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va uni iste'molchilarga yetkazish jarayonida aloqador barcha tarmoqlar uyg'unligidir**

2)2017-yilda mamlakatimizda g'alla yetishtirish 2000-yilga nisbatan necha marta ortdi?

**Javob: 2 marta**

3)2017-yilda mamlakatimizda qaysi ekkinni yetishtirish 2000-yilga nisbatan 4 marta ortdi?

**Javob: Kartoshka**

4)Mamlakatimizdagi qaysi xo'jalik turi sut mahsulotlarini ishlab chiqarishda yetakchilik qiladi?

**Javob: Dehqon xo'jaliklar**

## 25-MAVZU: QISHLOQ XO'JALIGI

1)Melioratsiya deb nimaga aytiladi?

**Javob: Yerning holatini yaxshilash uchun tekislash, sug'orish, sho'rni yuvish, nihol o'tqazish, tuproq hosildorligini oshirish kabi tadbirlar yig'indisiga melioratsiya deyiladi**

2)"Yashil inqilob" bu ....

**Javob: Qishloq xo'jaligini fan, texnika yutuqlari negizida tubdan o'zgartirish**

3)Agar qishloq  xo'jalik yalpi mahsuloti ekin maydonlarini kengaytirish va chorva mollari sonini oshirish hisobiga ko'paysa, bu qanday qishloq xo'jaligi deyiladi?

**Javob: Ekstensiv qishloq xo'jaligi**

4)Intensiv qishloq xo'jaligi deb nimaga aytiladi?

**Javob: Qishloq xo'jalik yalpi mahsuloti maydon birligida agrotexnika vositalaridan samarali foydalanish evaziga hosildorlikni oshirishga erishish va chorva zotlarini yaxshilash hisobiga uning mahsuldorligi oshsa, u intensiv qishloq xo'jaligi deb ataladi**

## 26-MAVZU: DEHQONCHILIK

1)Dehqonchilik qanday tarmoqlardan iborat?

**Javob: Dalachilik, bog'dorchilik va uzumchilik**

2)Vegetatsiya davri bu ....

**Javob: Sutkalik o'rtacha harorat +5 darajadan kam bo'lmagan kunlar**

3)O'zbekistonda sug'oriladigan yerlar mamlakat yer boyliklarining necha foizini tashkil etadi?

**Javob: 9,2% ini**

4)Qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan yalpi mahsulotning necha foizi sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladi?

**Javob: 98,5 % i**

5)Mustaqillikka qadar jami ekin maydonining necha foizga yaqin qismida donli ekinlar ekilgan?

**Javob: 20%**

6)Bugungi kunda mamlakatimizdagi jami ekin maydonlarining necha foizida donli ekinlar ekilmoqda?

**Javob: 50%**

7)Sholi mamlakatimizning qaysi qismlarida ko'p ekiladi?

**Javob: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent viloyati, Zarafshon va Farg'ona vodiylarida**

8)Sabzovat-poliz ekinlari, meva va uzumlar mamlakatimizdan shimolda joylashgan yurtlardagiga nisbatan necha kun erta yetiladi?

**Javob: 60-70 kun**

## 27-MAVZU: CHORVACHILIK

1)Mamlakatimizdagi qo'y va echkilarning umumiy soni qancha?

**Javob: 16 mln dan ortiq**

2)Qorako'l qo'ylari qaysi viloyatlarda boqilmaydi?

**Javob: Toshkent, Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarida**

3)Mamlakatimizdagi qoramollarning jami soni qancha?

**Javob: 9,6 mln dan ortiq**

4)Yilqilar mamlakatimizning qaysi viloyatlarida boqiladi?

**Javob: Samarqand, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida**

5)Mamlakatimizga yilqilarning umumiy soni qancha?

**Javob: 150 ming**

6)Ipak qurti asosan, qaysi oylarda boqiladi?

**Javob: Aprel-may oylarida**

## 28-MAVZU: O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGINING GEOGRAFIK TIPLARI

1)O'zbekistonda tabiat mintaqalari qaysi tomonga qarab o'zgaradi?

**Javob: G'arbdan-sharqqa ya'ni tekislikdan tog'larga tomon**

2)Mamlakatimizdagi eng katta sug'oriladigan yerlarga qayerlar kiradi?

**Javob: Farg'ona vodiysi, Mizacho'l, Qashqadaryo viloyati, Zarafshon vodiysi hamda Xorazm vohasi**

## 29-MAVZU: YENGIL SANOAT

1)Yengil sanoatning muhim tarmoqlariga qaysi tarmoqlar kiradi?

**Javob: Paxta tozalash, to'qimachilik, trikotaj, poyabzal, ko'nchilik, ipak ishlab chiqarish**

2)Mamlakatimizdagi birinchi paxta tozalash zavodi nechanchi yil qaysi shaharda qurilgan?

**Javob: 1874-yil Toshkent shahrida qurilgan**

3)O'zbekistonda nechanchi asrda kanop zavodlari yuzaga keldi?

**Javob: XX asrning 30-yillarida**

4)Kanop qanday mahsulotlar ishlab chiqarishda ishlatiladi?

**Javob: Qop-qanor, arqon, brezent va boshqa mahsulotlar**

5)Mamlakatimizdagi qaysi shaharlarda charm ishlab chiqariladi?

**Javob: Toshkent va Samarqand**

6)O'zbekistondagi qaysi shahar gilam to'qish markazi hisoblanadi?

**Javob: Xiva**

7)XX asr o'rtalarida qaysi shaharlarda to'qimachilik korxonalar barpo etildi?

**Javob: Toshkent, Farg'ona, Andijon va Buxoro**

8)Mamlakkatimizda ip-gazlama ishlab chiqarish yiliga necha mln kv. metrdan oshdi?

**Javob: 453**

9)Toshkent shahridagi 《Supertekstil》paxta ip yigiruv qo'shma korxonasi qaysi mamlakat bilan hamkorlikda qurilgan?

**Javob: AQSH**

## 30-MAVZU: OZIQ-OVQAT SANOATI

1)Mamlakatimizdagi qaysi shaharlarda go'sht kombinatlari ishlamoqda?

**Javob: Toshkent, Andijon, Namangan, Farg'ona, Ohangaron**

2)Hozirgi kunda mamlakatimizdagi qaysi shaharlarda choy qadoqlanmoqda?

**Javob: Samarqand va Toshkent**

3)Toshkentda qadoqlanayotgan choyning necha foizini ko'k choy tashkil qiladi?

**Javob: 80% ini**

4)Mamlakatimizdagi qaysi shaharda tamaki-fermentatsiya zavodi ishga tushirilgan?

**Javob: Urgut**

## 31-MAVZU: SANOATNI HUDUDIY TASHKIL ETISH HAMDA JOYLASHTIRISH SHAKLLARI

1)Sanoat rayonlar deb nimaga aytiladi?

**Javob: Sanoat tugunlari, markazlari va punktlari to'plangan hududlarga aytiladi**

2)Nuqtalar o'rnini to'ldiring!

Korxonalari oz sonli bo'lgan shaharcha ..... hisiblanadi.

**Javob: Sanoat punkti**

3)Bir qancha korxonalari bo'lsa-yu, ammo ishlab chiqarish jarayoni bog'lanmagan, suv va energiya ta'minoti umumiy

bo'lmagan shahar fanda nima deb ataladi?

**Javob: Sanoat markazi**

4)Bugungi kunda mamlakatimizda nechta erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda?

**Javob: 14 ta**

## 32-MAVZU: TRANSPORT GEOGRAFIYASI

1)Hozirgi kunda O'zbekistonda qaysi transport turidan foydalanilmaydi?

**Javob: Suv transportidan**

2)2017-yilda O'zbekisyonda avtomobil transporti orqali qancha tonna yuk tashilgan?

**Javob: 27,5 mlrd t/km**

3)2017-yilda O'zbekistonda quvur transporti orqali tashilgan yukning o'rtacha masofasi qancha?

**Javob: 846 km**

## 33-MAVZU: O'ZBEKISTON TRANSPORTINING ZAMONAVIY RIVOJLANISHI

